

## AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIKNING MAZMUN-MOHİYATI UNI O'RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR TAHLILI

**To'raqulov Oxunjon Mamajon o'g'li**  
*O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi*  
*Universiteti magistratura tinglovchisi mayor.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada axloqiy ruhiy-tayyorgarlikning mazmun-mohiyati, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi shaxsining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi o'r ganilishiga doir yondashuvlar tahlil qilib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *harbiy xizmatchi shaxsi, harbiy xizmat, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, jangovar stereotiplar, harbiy burch, harbiy professional faoliyat, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik fenomenlari.*

**Аннотация:** В статье анализируются содержание и сущность нравственно-духовной подготовки, подходы к изучению нравственно-духовной подготовки военнослужащих, проходящих службу в Вооруженных Силах.

**Ключевые слова:** личность военнослужащего, военная служба, морально-духовная подготовка, боевые стереотипы, воинский долг, военно-профессиональная деятельность, явления морально-духовной подготовки.

**Abstract:** This article analyzes the content and essence of moral and spiritual training, approaches to the study of moral and spiritual training of military personnel serving in the Armed Forces.

**Key words:** personality of a military serviceman, military service, moral-spiritual training, combat stereotypes, military duty, military professional activity, moral-spiritual training phenomena.

Harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma'naviy salohiyat Ozbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Barcha zamonlarda qo'shinlarni axloqiy-ruhiy holatini ko'tarish, shu bilan bir vaqtida dushman shaxsiy tarkibining axloqiy-ruhiy holatini pasaytirish masalasi muhim hisoblangan. Bugungi kunga kelib, ushbu omil zarurati susaygani yo'q, aksincha, zamonaviy jangovar harakatlar xarakterining o'zgarishi hamda odam psixikasiga ta'sir ko'rsatuvchi turli xil qurollarning yaratilishi natijasida mavzuning ahamiyati keskin oshdi. Shu jihatdan, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini tashkil etish muammolari doimo harbiy va harbiy-siyosiy rahbariyatning diqqat markazida turar ekan, ular mavjud sabablarni turli xil yo'llar va vositalardan foydalanim hal etish choralari ko'rildi.

Tarixdan ma'lumki, jangchilarning axloqiy-ruhiy sifatlariga hattoki antik davr faylasuflari ham qiziqishgan va unga o'z munosabatlarini bildirishgan. Jumladan, Demokrit, Aristotel, Platon, Plutarx, Evripid, Napolyon Banapart va boshqalar. Aynan

axloqiy-ruhiy omildan oqilona foydalanish, jangni muvaffaqiyatli o'tishini va g'alabaga erishishni belgilab beradi va kam sonli armiya o'zidan afzallikka ega bo'lgan qo'shin ustidan g'alaba qozonadi – deb hisoblashgan. Masalan, Platon yaxshi askar harakatchan, jangovar qurolini a'lo darajada ishlata olishi, jangda g'olib bo'lishi uchun kurasha olishi, keng dunyoqarashga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlagan.

Faylasuf va lashkarboshi Ksenofontning fikriga ko'ra, ideal jangchi ideal ta'lim-tarbiya tizimida shakllanadi. Shuningdek, axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan axloq tushunchasini ko'plab atoqli alloma va arboblari Imom Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimiz o'rganishgan va o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Ularning nuqtai nazarlariga ko'ra, kishining axloqi ma'rifati va bilimdonligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson qanchalik ma'rifatli bo'lsa, uning xulqi shunchalik yaxshi va mukammal hisoblangan.

Buyuk harbiy nazariyotchi va sarkardalar Sun-Szi, N.Makiavelli, A.Suvorov, A.Makedonskiy, Chingizzon, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahriddin Muhammad Bobur, Najimiddin Qubrolar har doim jangchilarining axloqiy-ruhiy sifatlari ya'ni jasurligi, botirligi, qahramonligi, dovyurakligi, or-nomusi, sodiqligi, ruhiy mustahkamligi kabi irodaviy xislatlariga diqqatini qaratib kelishgan. Jumladan, O'rta asrlar va zamonaviy davrdagi ko'pchilik taniqli davlat arboblari, sarkardalar, harbiy boshliqlar jangchilar va qo'mondonlarning yuksak axloqiy sifatlarga egaligi, g'alabaga olib keladi, deb hisoblashgan. Jumladan, Florensiyalik siyosatchi N.Makiavelli shunday degan "Axloqiylik va vijdonlilik armiyani qudratli qiladi". Shuningdek, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik muammolarini hal qilishda rus sarkardasi A.Suvorovning amaliyoti ahamiyatga molik. U harbiy tarbiya tizimida asosiy omil jangchi-odam tushunchasini juda to'g'ri qo'llagan.

Xususan, u shunday deydi, "Askar – miltiq texnikasiday oddiy mexanizm emas, odamdir. Bilimsiz askar bilan hech qanday yutuqqa erishib bo'lmaydi". Tashhubbuskorlik, fahmlilik, topqirlik, jangda oqilona harakt qilish, har bir askar o'z manyovrini bilishi, do'stlik, o'zaro yordam, o'zing o'lsang ham do'stingga yordam qil, askar to'g'risida qayg'urish, uning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilish A.Suvorovning askarni axloqiy va ruhiy jihatdan tarbiyalash bo'yicha yondashuvini tashkil qilgan. Ushbu yo'nalishda yapon samuraylarining yuksak axloqiy-ruhiy sifatlari eslab o'tilmasa to'g'ri bo'lmaydi, aslida, yapon jangchilarining jangovar ruhiga Busido (Jangchi yo'li) kodeksi katta ta'sir ko'rsatadi. Unda buddizm, sinoizm, Konfutsiy va Men-szi tamoyillari birlashtirilgan.

Aynan shu sababli, Busido postulatlarining aksariyat qismi jangda fidokorlikka asoslangandir. Misol uchun: "Urushda samurayning sadoqati, agar vazifa talab qilingan bo'lsa, dushman o'qlari va nayzalariga qarshi borishga qo'rmasdan, o'z hayotini qurban qilishdir". Ammo, Amir Temur harbiy strategiyada axloqiy-ruhiy omildan

mohirlik bilan foydalanish bo'yicha jaxondagi eng ilg'or sarkarda ekanligi tarixdan ma'lum. Soxibqiron "Kuch bilan birni, aql va qat'iyat bilan mingni yengish mumkin", deb aytgan. Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Temur o'zining armiyasidagi qat'iy intizomni ushlab turish natijasida yuksak g'alabalarga erishgan.

U jangchilarining jangovar ruhiga katta e'tibor bergan, qo'shinlari tayyorgarligi tizimida turli xil og'ir psixologik va uzoq safar usullarini qo'llagan. Shuningdek, o'z qo'shinlarida axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirishda kurash tushish, ov qilish, ot choptirish, kamondan otish kabi musobaqalar va o'yinlarni harbiy-musiqiy dastalarning surnay, karnay, nog'ora, dovul kabi musiqiy asboblardan ertadan kechgacha jangga chorlagan gumbur-gumbur ovozlari va jangchilarning chaqiriqlari ostida o'tkazish usulidan foydalangan.

Tarixchi J.Rahimovning yozishicha, ma'lumki, podshohlar, sarkardalar, umuman, harbiy xizmatdagi turli darajadagi zabitlarning tinch davrdagi jangovarligini saqlab turishning asosiy mashg'uloti ov tashkil qilish edi. Harbiylarning ov mashg'uloti oddiy ovchilikdan tubdan farq qilib, mardlik, tezkorlik, chopib borayotgan ohu yoki bo'ri, sirtlon, qo'ying-chi, barcha yirtqich hayvonlarga misoli g'animning chekinayotgan, qochayotgan yoxud hujum qilayotgan lashkariy guruhi sifatida qaralib, tezlik bilan chopayotgan ot ustida yoydan nishonni aniq olib unga o'q uzishi, yaqinlashib borib nayza bilan urib yarador qilishi, o'ldirishi va hatto tiriklayin holatda bo'yniga 30-40 metr masofadan arqon tashlab, yirtqichni o'lja olishi lozim edi

Ayrim hollarda ayiq, sher, yo'lbars, sirtlon ovi jangdagi holatdan mutlaqo farq qilmasdi. Har bir harbiy boshliq to'qay yoki cho'lda o'z harbiy qismi bilan ma'sum bir yirtqichlar to'dasini o'rab olardi. Huddi shu yerda o'rab olingan qurshovga olinib, ularning hududiy maydoni doiraviy siquvga olinib, biror yirtqich chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik, doira tobora toraytirilib, temirsovut, dubulg'alar kiyilib yirtqichlar bilan bahodirlar yakkama-yakka yoki guruh-guruh olishuvi o'tkazildi.

Bahodirlarga o'zi g'olib chiqqan sher, ayiq, sirtlon mukofot qilib berilardiki, bu mukofot jangchi uchun eng zo'r sovrin hisoblangan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu jangovar ov usulini, avvalo, Chingizzon eng takomil bosqichga yetkazdi.

Amir Temurning yettinchi bobosi Qorachar No'yon nisbatan qisqa vaqtdagi tinchlik davrlarda xoqon topshirig'i bilan Bosh qo'mondon sifatida qo'shinni cho'l yoki dasht kengliklariga olib chiqardi. O'sha joyda bir guruh yirtqichlar podasi qurshab olinib, bir joyga to'plangan. Birinchi bo'lib olishuvni jasur bahodirlar boshlab bergan. Sher, ayiq, yo'lbars bilan olishib g'olib chiqqan bahodir Chingizzxonning bosh sovrinini xoqonning o'z qo'lidan qabul qilib olardi. Amir Temur "Mashqda qiyin bo'lsa, jangda oson bo'ladi" degan so'zlarning naqadar to'g'ri aytigelanini o'z hayotiy faoliyat davomida isbotlab bergeniga, tarix guvohdir. Bu borada Jaloliddin Manguberdi va uning ustozi Najmiddin Kubro faoliyatları alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Urganchda Najmiddin Kubro tomonidan juvonmard maktabiga asos solingan bo'lib, unda Kubroviya tariqati asosida dushmanaga nisbatan ayovsiz qasoskorlik, vatanparvarlik, o'limdan qo'rmaslik va ozodlik g'oyalari jangchilar (talabalar) ongiga

singdirilgan. Juvonmardlik – bu insondagi eng murakkab jarayon bo'lib, u mukammal holatga yetganda jangovar san'at darajasiga ko'tarilgan. Juvonmardchilar tomonidan olib borilgan targ'ibotlarda vatanparvarlik g'oyasi o'limdan ustun ekanligi lashkar va xalq ongiga singdirilib,

“O'lim – bu tananing jismiy ko'rinishdan ma'naviy-ruhiy ko'rinishga o'tish jarayoni” deya uqtirilganligi dushmanga nisbatan axloqiy-ruhiy ustunlikka erishishni ta'minlagan. Bundan tashqari, maktabda dushman ruhiyati va kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadigan targ'ibot materiallarini tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular kamon o'qlari, ayg'oqchilar, “Sotqinlar” yordamida dushmanga yetkazilgan. Bozor peshtoqlari va ko'chalarda shiorlar, murojaatlar osilgan, notiqlar, masharabozlarning chiqishlari tashkil etilgan.

Mazkur targ'ibot kompaniyasi natijasida Urganch aholisi va lashkarlarda immunitet shakllangan bo'lib, son jihatdan ustun dushmanga nisbatan uzoq muddat jang olib borishini ta'minlagan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, davlat va siyosat arbobi Islom Karimov har bir oddiy askar harbiy texnikani mukammal egallashi barobarida uning qalbida, idrokida, ongida yuksak ma'naviy, axloqiy fazilatlar ham mujassam bo'lishi zarurligini alohida takidlab, “Yuragida o'ti bor, oriyatli bahodirlarimiz bugun ortimda Vatanim bor, el-yurtim, ota-onam, sevimli yorim bor, deb yovga mardona zarba berishga tayyor bo'lib turgani barchamizga kuch-quvvat bag'ishlab, ruhimizni ko'tarmoqda”-degan gaplari mazmunida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik orqali erishilgan natijaning ideal holati tasvirlangan edi.

Sohadagi izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo armiyalarida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tushunchasi bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas. Masalan, Amerika, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va boshqa G'arb mamlakatlari o'z armiyalarida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar nomlarini “Siyosiy ta'lif”, “Jangovar rujni shakllantirish”, “Etika tayyorgarligi” kabi nomlar bilan atashadi.

Shuningdek, “Axloqiy-ruhiy holat” tushunchasini “Optimistik ruh”, “Guruuhning odamning o'z ruhi va aqliga ishonch darajasi” kabi talqin qilishadi. Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mazmun-mohiyatini tushunib olishda insonlarda ayrim quyidagi psixologik sifatlarini bilish lozim. Jumladan, sog'lom odam, boshqa odamni o'ldirishga qat'iyan qarshi chiqadi, bunga inson psixikasining ikki jihatni ta'sir ko'rsatadi. Birinchisi, bu kognitiv, ya'ni axloqiy fazilatlarga bo'lgan ishonch, chunki boshqaga ziyon yetkazish umuminsoniy qarashlarga ziddir (“men o'ldirmasligim kerak”). Ikkinchisi, bu fiziologik, ya'ni boshqa odamni o'ldirishga bo'lgan ichki ishonchsizlik (Men o'ldirishga qodir emasman).

Ba'zi kishilar ulardan hech birini kuchli tarzda boshidan kechirmaydilar, lekin, ko'pchilik shunga moyildir. Shu sababli, harbiy tayyorgarlik ularni bartaraf qilishga intiladi. Ammo, oddiy tayyorgarlik bilan harbiy xizmatchilarni hayot uchun o'ta xavfli bo'lgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlariga erishib bo'lmaydi. Uning uchun ushbu qiyin va tahlikali vaziyatni tabiiy holatdagidek qilib yaratish va ushbu sharoitlarda

shaxsiy tarkibni tayyorgarligini tashkil qilish, ularni chiniqtirish orqali erishiladi. Ushbu jarayon axloqiy-ruhiy tayyorgarlik deb nomlanadi. Shuni alohida aytib o'tish joizki, axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni axloqiy tayyorgarlik va ruhiy tayyorgarlik, deb ajratish noto'g'ri bo'ladi.

Chunki, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi parallel tarzda olib boriladi. Ya'ni amaliy jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari, musobaqalar va boshqalar shaxsiy tarkibni ham axloqiy, ham ruhiy jihatdan jangga tayyorlaydi. Qiyin sharoitlarda harbiy xizmatchilarning shungacha olgan tarbiyasi amaliyatda mustahkamlanib, ular axloqiy-ruhiy jihatdan chiniqadi. Xullas, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar davomida shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy sifatlari shakllanadi va rivojlanadi. Shundan so'ng, harbiy xizmatdagi qiyin sharoitlar, jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlar va haqiqiy janglar davomida harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy jihatdan mustahkamlanib va chiniqib boradi.

Ammo, yuqorida ta'kidlanganidek, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tarbiyaviy va mafkuraviy ish davomida amalga oshiriladigan axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, barcha zamonlarda jangchilarni yuksak axloqiy-ruhiy sifatlarini shakllantirish va ruhiy jihatdan bardoshlilagini mustahkamlash masalalari doimo buyuk alloma va sarkardalarning diqqat markazida turgan. Shu jihatdan, jangchilarni jangovar ruhini yaratishda "Mashqda qiyin bo'lsa, jangda oson bo'ladi" shiori ostida qo'shnlarni tayyorgarligini tashkil qilishgan.

Buyuk sarkardalarning muvaffaqiyatlarida, axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni moxirlilik bilan olib borilishi natijasida erishilgan yuksak harbiy intizom, jangchilarning g'oyaviy sodiqligi, ruhiy bardoshiligi, jasurligi, vatanparvarligi va armiyaning yuqori jangovar ruhi kabi omillar muhim o'rinn tutadi. Shuni aytish lozimki, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik asosan tinchlik davrida olib boriladi va bunda harbiy xizmatchilarni ko'p mashqlar qildirish, og'ir psixologik usullarni qo'llash, yuksak axloqiy sifatlarini tarbiyalash va mashg'ulotlarni jangovar vaziyatlarga maksimal darajada yaqinlashtirishga e'tibor qaratiladi. Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatini barcha jabhalarini qamrab oladi, ya'ni, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar, jangovar va komandirlik tayyorgarligi, komandirlik-shtab va taktik o'quv mashqlari va musobaqalar bilan chambarchas holatda komandirlar (boshliqlar), jangovar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi, tibbiyot xizmati vakillari va boshqalar tomonidan tashkillashtiriladi va o'tkaziladi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik zamonaviy jangovar harakatlarda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar inobatga olinib tashkillashtiriladi va o'tkaziladi. Uni o'ziga xos jihat shundaki, buyruq va ko'rsatmalar, harbiy nizomlar bilan axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirishning barcha jihatlarini belgilab qo'yishning imkoniy yo'q. Shu tufayli, ushbu tayyorgarlik asosiy subyekt bo'lgan komandir (boshliq)dan ijodiy yodashuvni talab qiladi.

Harbiy xizmatchi shaxsida ahloqiy-ruhiy tayyorgarlikning shakllanishi avvolambor mazkur shaxsdagi Vatanni sevish, xalq va millat ruhini qadrlash, o'z taqdiri va turmush tarzini Vatan farovonligi bilan ko'ra olishi va shu kabi yuksak vatanparvarlik tuyg'ulariga tayansa, mana shu yuksak tuyg'ular bilan shaxsdagi chinakam mardlik va jasoratni shakllanishi, jangovar-jismoniy qobiliyatlarning takomillashuvi va ekstremal vaziyatlarda shaxsning psixik barqarorligi, belgilangan har qanday topshiriqni aniq, dadil, tezkor bajarishi bilan ifodalanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

#### I. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2023.

2. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi". // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 10.01.2018 y. 03/18/458/0537-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari. T.: "O'zbekiston". 2017.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 08.08.2018 y. 07/18/3898/1622-son.

#### II. Monografiya, darslik va qo'llanmalar

5.Kundalik faoliyatda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish bo'yicha qo'llanma. O'R MV. T.: Harbiy nashriyot.

6.Quriqlikdagi qo'shinlarning Jangovar nizomi. 1,2,3-qismlari. T.: Harbiy nashriyot.

7.O'.Urunov. Kundalik harbiy xizmat faoliyatning psixologik xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi. O'quv qo'llanma. 2015. B. 5-6.

8.J.Rahimov. Amir Temur. Adolat va qudrat timsoli. Ilmiy-tarixiy kitob. T.: 2017. B. 24-98.

9.M.Abilov. Buyuk ajdodlardan meros muqaddas Vatan. T.: 2012. Harbiy nashriyot. 109 b.